



Qoraqalpog`iston Respublikasida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 - yil yanvar – mart

2020 - yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **43,9 %** ni tashkil etdi.

2020 - yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, **12,0** birlikni tashkil qildi.

2020 - yilning yanvar-martida **924** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **72,1** foizga kam.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida **304** ta, sanoat tarmog'ida **187** ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida **153** ta, qurilish tarmog'ida **98** ta, yashash va ovqatlanishda **56** ta, tashish va saqlashda **31** ta tashkil etilgan.

2020 - yil yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushlari, %



Savdo
32,9 %



Sanoat
20,2 %



Qurilish
10,6 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
16,6 %



Yashash va ovqatlanish
6,1 %



Tashish va saqlash
3,4 %

**2019 – 2020 – yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'Ichov birligi	2019-y.	2020-y.	(+,-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	13174	15188	2014
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1282	924	-358
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	42,8	43,9	1,1
Sanoat	%	16,9	19,5	2,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	96,1	96,4	0,3
Investitsiya	%	32,0	62,0	30,0
Qurilish	%	88,5	89,7	1,2
Savdo	%	80,7	89,4	8,7
Xizmatlar	%	54,2	53,3	-0,9
Yuk tashish	%	83,5	80,5	-3,0
Yuk aylanmasi	%	88,5	88,2	-0,3
Yo'lovchi tashish	%	97,3	97,4	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,5	97,6	0,1
Eksport	%	13,4	20,1	6,7
Import	%	71,5	70,6	-0,9



**2020-yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning
tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %**




2020 - yilning yanvar - mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p Nukus shahrida - 246 ta, To'rtko'l tumanida - 107 ta, Ellikqal'a tumanida - 73 ta, Beruniy tumanida - 64 ta, Nukus tumanida - 62 ta bo'lib, eng past ko'rsatkichni Taxtako'pir tumanida 12 tani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	2019 – yil yanvar – mart	2020 – yil yanvar – mart	(+;-)
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1282	924	-358
Nukus sh.	377	246	-131
tumanlar:			
Amudaryo	101	55	-46
Beruniy	61	64	3
Bo'zatov	-	20	20
Qorao'zak	32	18	14
Kegeyli	51	26	25
Qo'ng'iroq	86	42	44
Qonliko'l	40	18	22
Mo'ynoq	51	41	-10
Nukus	38	62	24
Taxiatosh	48	30	-18
Taxtako'pir	19	12	-7
To'rtko'l	137	107	-30
Xo'jayli	90	47	-43
Chimboy	52	35	-17
Shumanay	45	28	-17
Ellikqal'a	54	73	19



2020 - yil yanvar - mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, %




2020 - yil yanvar - mart holatiga shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Nukus shahri - 27,0 %, To'rtko'l tumani - 12,0 %, Ellikqal'a tumani - 8,0 %, Beruniy va Nukus tumani 7,0 %, Amudaryo tumani - 6,0 %, Qo'ng'iroq va Xo'jayli tumani - 5,0 %, Mo'ynoq va Chimboy tumani - 4,0 %, Taxiatsosh, Kegeyli va Shumanay tumanlari - 3,0 %, Qorao'zak, Bo'zatov, Qonlikol' tumanlari - 2,0 %, eng past ko'rsatkich Tuxtako'pir tumanida - 1,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	2019 - yil yanvar - mart	2020 - yil yanvar - mart	(+/-)
Jami	1282	924	-358
Qishloq, o'rmon va baliq xo'ialiqli	113	153	40
Sanoat	244	187	-57
Qurilish	225	98	-127
Savdo	512	304	-208
Tashish va saqlash	30	31	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	69	56	-13
Axborot va aloqa	11	17	6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14	19	5
Boshqa faoliyat turlari	64	59	-5

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar


	2019 - yil yanvar-mart	2020 - yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Nukus shahar	377	246	-131
To'rtko'l tumani	137	107	-30
Ellikqal'a tumani	53	73	20
Beruniy tumani	61	64	3
Nukus tumani	38	62	24
Amudaryo tumani	101	55	-46
Xo'jayli tumani	90	47	-43
Qo'ng'iroq tumani	86	42	-44
Mo'ynoq tumani	51	41	-10
Chimboy tumani	52	35	-17

2020 - yilning yanvar - martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Nukus shahrida - 246 taga yetdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



**Qoraqalpog`iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni(har 1000 aholiga, birlikda),**

2020 - yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'satkich Nukus tumanida 22,3 birlik, Qonliko'l tumanida 16,6 birlik, Qorao'zak tumanida 16,4 birlik, Nukus shahrida 14,9 birlik, Mo'ynoq va To'rtko'l tumanida 14,6 birlik, Shumanay tumanida 12,3 birlik, Taxtako'pir tumanida 12,2 birlik, Ellikqal'a tumanida 11,6 birlik, Beruniy tumanida 10,7 birlik, Kegeyli tumanida 10,5 birlik, Bo'zatov tumanida 10,2 birlik, Amudaryo va Chimboy tumanida 9,4 birlik, Qo'ng'irot tumanlarida 8,5 birlik, Xo'jayli tumanida 7,7 birlikni tashkil etgan. Taxiatosh tumanida esa ushbu ko'satkich eng past bo'lib 7,3 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 - yilning yanvar – martida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




- **Eng yuqori ko'rsatkich** Nukus tumani - 23,3 birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich** Ellikqal'a tumani - 11,6 birlik;
- **Eng past ko'rsatkich** Taxiatush tumani - 7,3 birlik;

Bundan ko'rilib turibdiki, Nukus tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Taxiatush tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.



Kishik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'sish dinamikasi yanvar - mart holatiga, %

2020 - yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHM dagi ulushi 43,9 % ni tashkil qildi. (2019 - yilning yanvar- martida 42,8 %).



43.9 %

2020-y.




42.8 %

2019-y.



**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumi hajmiga nisbatan % da)**



2020 - yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qoraqalpog`iston Respublikasi	19,5	89,7	53,3	62,0
Nukus shahar	5,5	99,3	42,7	59,9
Amudaryo	36,2	90,3	94,8	75,1
Beruniy	80,0	100,0	97,2	97,3
Bo'zatov	5,1	56,0	94,0	100,0
Qorao'zak	100,0	99,2	97,2	98,5
Kegeyli	23,7	66,6	95,6	64,8
Qo'ng'irot	70,4	60,2	26,7	42,5
Qonliko'l	66,5	99,6	96,9	65,7
Mo'ynoq	100,0	99,7	93,1	58,9
Nukus	24,8	99,2	96,1	77,9
Taxiatosh	7,1	63,0	89,0	25,7
Taxtako'pir	17,0	75,0	95,4	55,2
To'rtko'l	44,5	98,6	94,6	59,7
Xo'jayli	30,5	71,6	87,2	65,7
Chimboy	96,8	80,9	91,5	73,7
Shumanay	100,0	99,7	96,1	-
Ellikqal'a	100,0	98,6	93,7	7,7

Shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi eng ko`p:

Sanoatda-

Shumanay (100,0 %),
Mo`ynoq (100,0 %),
Qorao'zak (100,0 %),
Ellikqal'a (100,0 %),
Chimboy (96,8 %) va
Beruniy (80,0 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Beruniy (100,0 %),
Shumanay (99,7 %),
Mo`ynoq (99,7 %),
Qonliko'l (96,9 %),
Nukus shahri (99,3 %)
va Qorao'zak (99,2 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Qorao'zak (97,2 %),
Beruniy (97,2 %),
Qonliko'l (96,9 %),
Shumanay (96,1 %),
Taxtako'pir (95,4 %) va
To'rtko'l (67,2 %)
tumanlarida

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - martida






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2020 - yil yanvar-mart holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot eksport (tovar, xizmatlar) ning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Beruniy, Qorao'zak, Qonliko'l, Mo'ynoq, Ellikqal'a, Nukus tumani, Xo'jayli, Shumanay, Bo'zatov, Taxtako'pir va Chimboy tumanlarida - 100 %, Qo'ng'iroq tumanida - 99,9 %, To'rtko'l tumani - 99,1 %, Taxiatosh tumani - 97,4 %, Kegeyli tumani - 84,7 %, Amudaryo tumani - 3,2 % va eng past ko'rsatkich Nukus shahrida - 1,0 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlikdagi Import (tovar, xizmat)larning jami Import hajmidagi ulushi, %



2020 - yil yanvar-mart holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot import (tovar, xizmatlar)ning jami importdagi eng ko'p ulushi Beruniy, Qorao'zak, Qonliko'l, Mo'ynoq, Amudaryo, To'rtko'l, Nukus tumani, Taxiatosh, Xo'jayli, Shumanay, Taxtako'pir va Chimboy tumanlarida – 100,0 %, Ellikqal'a – 98,3 %, Qo'ng'irot tumanida – 97,4 %, Kegeyli tumani - 73,5 % va eng past ko'rsatkichni Nukus shahrida - 41,2 % ni tashkil etdi.



2020 - yil yanvar - martida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (110,6 mlrd. so'm), Ellikqal'a (69,0 mlrd. so'm), Beruniy (63,5 mlrd. so'm), Qonliko'l (59,5 mlrd. so'm), Chimboy (47,3 mlrd. so'm), To'rtko'l (47,0 mlrd. so'm), Qo'ng'iroq (40,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Taxtako'pir (6,4 mlrd. so'm), Bo'zatov tumani (1,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





2020 - yil yanvar - mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Shumanay, Qorao'zak, Mo'ynoq va Ellikqal'a (100 %), Chimboy (96,8 %), Beruniy (80,0 %), Qo'ng'iroq (70,4 %), Qonliko'l (66,5 %), To'rko'l (44,5 %), Amudaryo (36,2 %), Xo'jayli (30,5 %), Nukus tumani (24,8 %), Kegeyli (23,7 %), Taxtako'pir (17,0 %), Taxiatosh (7,1 %) tumanlari. Nukus shahri (5,5 %) va Bo'zatov (5,1 %) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.



2020 - yilning yanvar - martida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (317,6 mlrd. so'm), Xo'jayli (137,6 mlrd. so'm), Beruniy (136,0 mlrd. so'm), To'rtko'l (114,2 mlrd. so'm) va Qo'ng'iroq (101,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020 - yilning yanvar - martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (245,9 mlrd. so'm), Qo'ngirot (44,1 mlrd. so'm), Beruniy (43,2 mlrd. so'm), To'rtko'l (43,0 mlrd so'm), Nukus tumani (35,8 mlrd. so'm), Amudaryo (32,7 mlrd. so'm), Ellikqal'a (29,8 mlrd. so'm), Xo'jayli (25,5 mlrd. so'm) va eng kam Bo'zatov tumanida (1,1 mlrd. so'm) qayd etildi.





2020 - yilning yanvar - martida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Shahar va tumanlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (408,1 mlrd. so'm), To'rtko'l (58,9 mlrd. so'm), Beruniy (47,4 mlrd. so'm), Amudaryo (46,3 mlrd. so'm), Qo'ng'irot (45,8 mlrd. so'm) va Xo'jayli (45,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 - yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 647 tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Ulardan sanoat korxonalari ulushi - 12,2 % (79 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 7,9 % (51 ta), qurilish - 13,8 % (89 ta), savdo - 32,8 % (212 ta), xizmatlar sohasi - 33,3 % (216 ta).


* oxirgi yillik statistik hisobotiga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.



2020 - yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar,ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 - yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar,ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 4,5 punktga, xizmatlar sohasida 11,9 punktga, savdoda 10,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6,1 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan sanoat sohasi korxonaladan tashqari barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5,9 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda I chorakdagи iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi savdo sohasida 3,2 punktga, qurilish korxonalarida 8,9 punktga, xizmatlar sohasida 5,8 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qurilish korxonalarida 7,6 punktga, savdo sohasida 7,0 punktga, xizmatlar sohasida 11,3 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3,9 punktga, sanoat sohasida 1,4 punktga, qurilishda 1,2 punktga oshdi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2020-yil I chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 85 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Ulardan sanoat korxonalari - 16 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 18,8 %), qurilish - 8 (9,4 %), savdo - 30 (35,3 %), xizmatlar sohasi - 17 (20,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 14 (16,5 %) tashkil etdi.

2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari býicha taqsimlanishi, % da






2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar býicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 14,3 punktga, qurilish korxonalari 3,9 punktga, xizmatlar sohasida - 10,2 punktga o'sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan sanoat sohasi korxonaladan tashqari barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida - 16,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14,3 punktga va savdo sohasida 17,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019 – 2020 – yillar I chorakdagagi yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020-yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 33,9 punktga, savdoda 19,6 punktga, xizmatlar sohasida 20,4 punktga ko'paydi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 19,6 punktga, qurilishda 6,6 punktga ko'paydi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 33,9 punktga, savdoda 26,2 punktga, xizmatlar sohasida 20,4 punktga pasayishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdoda 6,6 punktga ko'paydi.



2019-2020-yil I choragida yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **R.Sharibaev**

Tel.: (861) 222-18-01, (861)224-92-07,